# XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



**Ish haqi.** 2021- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda:



**Ta’limda** 1 206 ta muassasada 60 845 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,1 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 078,4 ming so‘mni tashkil etgan va 2020- yilning mos davriga nisbatan 16,8 % ga o‘sdi.



**Sanoatda** 40 ta korxonada 15 806 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi–12,2 %) xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 929,9 ming so‘mni tashkil etgan va 2020- yilning mos davriga nisbatan 12,7 % ga ko‘paydi;



**Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda** 93 ta muassasada 24 026 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,6 %) xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2120,2 ming so‘mni tashkil etgan va 2020- yilning mos davriga nisbatan 10,1 % ga o‘sdi;



**Tashish va saqlashda** 11 ta korxonada 2 680 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,0 % ) xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4185,3 ming so‘mni tashkil etgan va 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,7 % ga o‘sdi;



**Moliyaviy va sug‘urta faoliyatida** 18 ta muassasada 2 413 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,9 % ) xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 766,3 ming so‘mni tashkil etgan va 2020- yilning mos davriga nisbatan 29,1 % ga o‘sdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2021- yil yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 463,0 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 14,4 % ga o‘sishi kuzatildi.



**Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni**

*(2021- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

| | Korxona va tashkilotlar soni ( birlik) | | O'sish sur'ati, % | Xodimlar soni, kishi | | O'sish sur'ati % | ulushi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | | 2020- y. | 2021- y. | | |
| **Xorazm viloyati – jami:** | **2 694** | **3 108** | **115,4** | **124 077** | **129 117** | **104,1** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | | | | | | |
| Sanoat | 34 | 41 | 120,6 | 14 375 | 15 806 | 110,0 | 12,2 |
| Qurilish | 12 | 13 | 108,3 | 1 304 | 1 398 | 107,2 | 1,1 |
| Savdo | 22 | 26 | 118,2 | 1 912 | 1 847 | 96,6 | 1,4 |
| Tashish va saqlash | 10 | 11 | 110,0 | 2 417 | 2 653 | 109,8 | 2,1 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 11 | 12 | 109,1 | 60 | 71 | 118,3 | 0,1 |
| Axborot va aloqa | 16 | 18 | 112,5 | 784 | 781 | 99,6 | 0,6 |
| Moliyaviy va sug'urta faoliyati | 29 | 18 | 62,1 | 2 532 | 2 413 | 95,3 | 1,9 |
| Ta'lim | 1 101 | 1 206 | 109,5 | 57 362 | 60 845 | 106,1 | 47,1 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar | 69 | 93 | 134,8 | 23 405 | 24 026 | 102,7 | 18,6 |
| San'at, ko'ngil ochish va dam olish | 86 | 157 | 182,6 | 1 938 | 1 914 | 98,8 | 1,5 |
| Boshqa faoliyat turlari | 1 304 | 1 513 | 116,0 | 17 988 | 17 363 | 96,5 | 13,4 |

## Sohalar kesimida ish haqi fondi va o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)*

| | *O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m (yanvar- sentabr)* | | *O‘sish sur’ati, %* |
|---|---|---|---|
| | *2020- yil* | *2021- yil* | |
| **Xorazm viloyati - jami**: | **2 153,4** | **2 463,0** | **114,4** |
| *shu jumladan:* | | | |
| Sanoat | 2 599,4 | 2 929,9 | 112,7 |
| Qurilish | 2 443,5 | 2 849,5 | 116,6 |
| Savdo | 2 094,6 | 2 162,9 | 103,3 |
| Tashish va saqlash | 4 156,3 | 4 185,3 | 100,7 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 233,5 | 1 472,9 | 119,4 |
| Axborot va aloqa | 2 431,9 | 2 931,1 | 120,5 |
| Moliyaviy va sug‘urta faoliyati | 5 240,3 | 6 766,3 | 129,1 |
| Ta’lim | 1 779,8 | 2 078,4 | 116,8 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar | 1 925,8 | 2 120,2 | 110,1 |
| San’at, ko‘ngil ochish va dam olish | 1 574,2 | 1 862,1 | 118,3 |
| Boshqa faoliyat turlari | 2 300,1 | 3 048,0 | 132,5 |

2021- yil yanvar-sentabr oylarida 2020- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o‘sish sur’ati moliyaviy va sug‘urta faoliyatida 29,1 %, axborot va aloqada - 20,5 %, yashash va ovqatlanish xizmatida - 19,4 %, san’at, ko‘ngil ochish va dam olishda -18,3 %, ta’limda - 16,8 % va qurilishda - 16,6 % darajada kuzatildi.

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o‘sish sur’ati**

*(2021- yil yanvar-sentabrda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘mda)*




O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Tuproqqal’a tumanida 3 275,4 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 133,0 %), Urganch shahrida 3230,2 ming so‘mni (131,1 %) tashkil etgan bo‘lsa, Hazorasp tumanida 1 847,1 ming so‘mni (75,0 %), Yangibozor tumanida 1 880,2 ming so‘mni (76,3 %), Qo‘shko‘pir tumanida 1 936,6 ming so‘mni (78,6 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

*(2021- yil yanvar-sentabr, viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)*




**Ma’lumot uchun:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020- yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, 2021- yilning 1-sentabridan boshlab mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori 822 000,0 so‘mni tashkil etadi.



**Ta’lim faoliyati bo‘yicha shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko‘rsatkichiga nisbatan)**
*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)*

| | *2021- yil yanvar-sentabr oylarida o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m* | *Viloyatga nisbatan foizda* |
|---|---|---|
| **Xorazm viloyati** | **2 078,4** | **100,0** |
| shaharlar: | | |
| Urganch | 2 862,8 | 137,7 |
| Xiva | 1 956,5 | 94,1 |
| tumanlar: | | |
| Bog‘ot | 1 970,6 | 94,8 |
| Gurlan | 1 803,1 | 86,8 |
| Qo‘shko‘pir | 1 757,2 | 84,5 |
| Urganch | 1 973,3 | 94,9 |
| Hazorasp | 1 763,8 | 84,9 |
| Tuproqqal’a | 1 853,5 | 89,2 |
| Xonqa | 2 065,7 | 99,4 |
| Xiva | 1 885,7 | 90,7 |
| Shovot | 1 991,2 | 95,8 |
| Yangiariq | 2 141,8 | 103,1 |
| Yangibozor | 1 843,5 | 88,7 |

**Shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)*




